



INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TANLASHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI VA AMALIY AHAMIYATI

Suhrob Turanov

”Finance” kafedrası katta o'qituvchisi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,

Toshkent, O'zbekiston

sukhrobturanov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib, moliyalashtirish mexanizmlarini tanlashda xalqaro amaliyotning iqtisodiy va institutsional ahamiyati tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlarda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari, grantlar, venchur kapital, maxsus agentliklar va milliy innovatsion tizimlar orqali moliyaviy rag'batlantirishning samarali usullari shakllangan. O'zbekiston uchun ushbu tajribani milliy sharoitlarga moslashtirib, zamonaviy innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish taklif qilinmoqda.

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyat, moliyalashtirish mexanizmlari, soliq imtiyozlari, xorij tajribasi, davlat siyosati, milliy innovatsion tizim, R&D, innovatsion investitsiyalar, texnoparklar, venchur kapital.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti innovatsion yo'nalish orqali rivojlanish zarurati bilan ajralib turadi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki texnologik taraqqiyot, raqobatbardoshlik va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi omil sifatida ham e'tirof etilmoqda. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish iqtisodiy taraqqiyotning asosi sifatida ko'riladi, chunki u yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlar yaratish orqali yuqori qo'shilgan qiymat hosil qilishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish samaradorligini ta'minlashda davlatning faolligi, moliyaviy rag'batlar tizimi, ilmiy-texnik



salohiyat va xususiy sektor ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Jumladan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Fransiya va boshqa davlatlar innovatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha aniq mexanizmlar, qonunchilik va infratuzilmani shakllantirgan. Mamlakat siyosati innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda asosiy rol o'ynaydi va iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish, xususiy sektor uchun yo'nalishni ta'minlash va turli manfaatdor tomonlarning xarakatlari samaradorligini muvofiqlashtirishga yordam beradigan keng doiradagi siyosat va vositalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, amaldagi milliy xususiyatlar va xalqaro tajribani hisobga olgan holda, mavjud vaziyatga tegishli diagnostikani ta'minlaydigan va innovatsion tizimni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradigan milliy innovatsion tizim samaradorligini baholashga asoslanishi kerak. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirmasdan innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas. Moliyalashtirish innovatsion loyihalarni zarur moddiy, texnik va ishchi resurslar bilan ta'minlashdan iborat. Korxonaning o'z mablag'larining yetishmasligi qo'shimcha qarz manbalarini jalb qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Innovatsion loyihani moliyalashtirish quyidagi shartlar asosida amalga oshirilishi kerak:

- investitsiyalar dinamikasi vaqt va moliyaviy cheklovlariga muvofiq dasturning bajarilishini ta'minlashi kerak;
- moliyaviy resurslar tannarxini va dastur tavakkalchiligini pasaytirish tegishli tuzilma va moliyalashtirish manbalari hamda muayyan tashkiliy chora-tadbirlar, jumladan: soliq imtiyozlari, kafolatlar, ishtirok etishning turli shakllari orqali ta'minlanishi kerak. Bu borada innovatsiyalarni moliyalashtirishni tashkil etish va usullari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga sezilarli ta'sir qiladi. Masalan, Jahon Banki va OECD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida R&D ishlari uchun ajratilayotgan mablag'lar global YaIMning o'rtacha 2,3 foizini tashkil etadi, ayrim rivojlangan



davlatlarda esa bu ko'rsatkich 3-4 foizgacha yetadi (masalan, Janubiy Koreyada – 4,8%, AQShda – 3,5%, Germaniyada – 3,1%) (World Bank). Innovatsion faoliyatni tartibga solish bo'yicha yetakchi davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali moliyalashtirish tizimi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mexanizmlar korxonalar innovatsion salohiyatining oshishiga xizmat qiladi. Masalan, 1980 yilda qabul qilingan Bayh–Dole qonuni (Patent va Savdo Belgilari Qonuniga o'zgartirishlar) AQShda universitetlar va ilmiy markazlarga federal hukumat tomonidan moliyalashtirilgan tadqiqotlar natijasida yaratilgan ixtirolar ustidan mulk huquqini olish imkoniyatini berdi. Bu esa ushbu muassasalarga o'z innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish va xususiy sektor bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratdi. Natijada, ilmiy-tadqiqot institutlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik kuchayib, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish tezlashdi (2001). Yevropa Ittifoqi "Horizon Europe" dasturi doirasida 2021-2027 yillarga mo'ljallangan 95,5 milliard yevro hajmidagi moliyalashtirish mexanizmi ishga tushirilgan bo'lib, u innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish va ilmiy-texnologik rivojlanishga asosiy turtki bermoqda (2021).

Janubiy Koreya – davlat tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash siyosati natijasida mamlakat global texnologik bozorda yetakchilardan biriga aylandi. Davlat budjetining taxminan 5 foizi R&D va innovatsion loyihalarga yo'naltiriladi, bu esa yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport hajmini oshirishga yordam bermoqda.

Xitoy "Made in China 2025" strategiyasi asosida yirik davlat investitsiyalari va soliq imtiyozlari orqali texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish tizimi shakllantirilgan. Ushbu dastur natijasida Xitoy dunyoning yetakchi innovatsion markazlaridan biriga aylandi. Ushbu strategiya Xitoyning sanoat salohiyatini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, mamlakatni yuqori texnologiyali tarmoqlarda global yetakchiga aylantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Strategiya doirasida Xitoy hukumati ichki innovatsiyalarni rivojlantirish, xorijiy texnologiyalarga qaramlikni kamaytirish va ilg'or ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish uchun yirik moliyaviy mexanizmlarni ishga tushirdi. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, past foizli kreditlar, soliq imtiyozlari va



subsidia mexanizmlari orqali yuqori texnologiyali tarmoqlarga keng ko'lamli investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Masalan, ilg'or ishlab chiqarish fondi uchun 2,9 milliard AQSh dollari, milliy integral mikrosxemalar sanoatini rivojlantirish investitsiya fondi uchun esa 20,2 milliard AQSh dollari ajratilgan. Ushbu strategiya natijasida Xitoy sun'iy intellekt, 5G texnologiyalari, aerokosmik muhandislik, yarimo'tkazgichlar, elektr transport vositalari va biotexnologiya kabi ilg'or sohalarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, Xitoy yuqori tezlikdagi temir yo'l, grafen, uchuvchisiz uchish apparatlari, quyosh panellari va elektr transport vositalari bo'yicha global yetakchiga aylandi. Biroq, ushbu rivojlanish jarayoni bir qator muammolar bilan ham bog'liq. Xitoy iqtisodiy qarz yukining ortishi, aholining qarishi va ko'chmas mulk bozoridagi beqarorlik kabi ichki muammolarga duch kelmoqda, bu esa mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (2023).

**Rivojlangan davlatlarda innovatsion faoliyatni tijratlashtirishni
davlat tomonidan rag'batlantirish shakllari**

Davlatlar	Rag'batlantirish shakllari	Innovatsiya jarayonining tashkiliy tuzilmalari
AQSH	Imtiyozli soliqqa tortish, investitsiya solig'i krediti, amortizatsiya bo'yicha imtiyozlar, subsidiyalar, maqsadli byudjet mablag'lari, asosiy ishlab chiqarish va savdo bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarini soliqqa tortiladigan daromad miqdoridan qoplash	Texnologik kapital tarmog'i: texnopolislar, ilmiy-texnika parklari, korporatsiyaning kvazi riskli shakli, kichik innovatsion firmalar, tadqiqot konsorsiumlari va tashkilotlari, biznes-inkubatorlar, ilmiy-texnologik markazlar, ilmiy va muhandislik markazlari, qo'shma sanoat va universitet tadqiqot markazlari, venchur kompaniyalar



Germaniya	Maqsadli subsidiyalar, texnik ekspertiza uchun to'lovlar, imtiyozli kreditlar, kredit sug'urtasi tizimi, soliq chegirmalari va imtiyozlari, tezlashtirilgan amortizatsiya, maqsadli bank kreditlari	Ilmiy va texnologik parklar, kichik innovatsion firmalar, tadqiqot konsorsiumlari, venchur firmalar, texnopolislar
Fransiya	Grantlar, subsidiyalar, uzoq muddatli kreditlar, soliq imtiyozlari, kredit kafolatlari, imtiyozli soliqqa tortish	
Yaponiya	Imtiyozli kreditlar, imtiyozli soliqqa tortish, subsidiyalar	Yaponiya ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish korporatsiyasi, texnopolis, fan va texnologiya parklari, kichik innovatsion firmalar, tadqiqot konsorsiumlari va tashkilotlari
Buyuk britaniya	Imtiyozli soliqqa tortish, subsidiyalar, ishlab chiqarish (xizmatlar, kredit kafolatlari) tannarxi bo'yicha ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarini hisobdan chiqarish	Britaniya texnologiya guruhi, texnopolislar, kichik innovatsion firmalar, fan va texnologiya parklari, venchur kompaniyalar, tadqiqot konsorsiumlari
Kanada	Imtiyozli shartlarda kreditlar, subsidiyalar, texnik yordam, soliq imtiyozlari, imtiyozli soliqqa tortish	Texnopolis, fan va texnologiya parklari, kichik innovatsion firmalar, venchur kompaniyalar, tadqiqot konsorsiumlari

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirishda davlat tomonidan rag'batlantiruvchi fiskal mexanizmlarni joriy etish,



strategik sektorlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni boshqarish va xususiy sektorni jalb etish muhim omillardan biridir.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar bir necha yo'nalishda dolzarb ahamiyat kasb etadi:

1. Soliq rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish. Rivojlangan davlatlar tajribasi soliq kreditlari, R&D xarajatlarini daromad solig'idan chegirish, tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsion chegirmalar orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirish imkonini bergan. O'zbekistonda ham R&D faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun ushbu imtiyozlarni bosqichma-bosqich joriy etish, kichik innovatsion firmalar va startaplar uchun soliq yengilliklarini kengaytirish zarur.

2. Maxsus moliyalashtiruvchi agentliklar tashkil etish. Yaponiya (NEDO), Fransiya (ANR) va AQSh (NSF)da bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, monitoring qilish va baholash bilan shug'ullanuvchi maxsus milliy agentlik faoliyatini tashkil etish kerak. Bu agentlik grantlar, subsidiyalar va kafolat mexanizmlari orqali xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

3. Texnoparklar va ilmiy-texnika markazlarini rivojlantirish. Xorij tajribasida innovatsion muhitni shakllantirishda texnoparklar, ilmiy-texnologik inkubatorlar, venchur firmalar muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston hududlarida ham universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat korxonalari integratsiyasiga asoslangan texnoparklar soni va sifatini oshirish, ular orqali tijoratlashtirish jarayonini kuchaytirish muhim.

4. Venchur kapital va xususiy sarmoyalarni jalb etish. Innovatsion loyiha moliyalashtirishida riskli investitsiyalar – venchur kapital muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda xususiy investorlar ishtirokini kengaytirish uchun ularga kafolat mexanizmlari, birinchi yo'qotish kapitali (first-loss capital) va chiqish strategiyalari (exit strategy) bo'yicha imkoniyatlar yaratish lozim.

5. Milliy innovatsion tizimni kuchaytirish. Xorijiy tajriba asosida O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi takomillashtirilishi zarur.

Bunda quyidagi elementlar muhim:



- davlat siyosatining muvofiqlashtirilganligi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik;
- intellektual mulkni huquqiy himoya qilish tizimi;
- innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining mavjudligi.

Mazkur yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiyotining texnologik yangilanishiga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishiga, ilmiy salohiyatning real iqtisodiyotga integratsiyasiga xizmat qiladi. Yirik xalqaro dasturlar (masalan, Horizon Europe, Asian Development Bank innovatsion grantlari) tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish mumkin.

Shu bois, xorijiy tajriba asosida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini yaratish O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va texnologik suverenitetini ta'minlashda muhim strategik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank (2023) . <https://data.worldbank.org/indicator/GB.XPD.RSDV.GD.ZS?utm>
2. Mowery, D. C., Nelson, R. R., Sampat, B. N., & Ziedonis, A. A. (2001). The growth of patenting and licensing by US universities: An assessment of the effects of the Bayh-Dole Act of 1980. *Research Policy*, 30(1), 99-119.
3. European Commission. (2021). Horizon Europe The EU Research & Innovation Programme (2021–2027). Publications Office of the European Union. Retrieved from <https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/1f107d76-acbe-11eb-9767-01aa75ed71a1>.
4. The Times. (2023). China's ghost stations show a nation haunted by debt. Retrieved from <https://www.thetimes.co.uk/article/chinas-ghost-stations-show-a-nation-haunted-by-debt-qqf9pdnvc>.